

**OGAHIY ZULLISONAYN SHOIR SIFATIDA**

**Ilmiy rahbar: f.f.n. PhD M.Ortiqova**

**Toshkent davlat sharqshunoslik univristeti talabasi**

**Shukurova Ruxsora Abdulhofiz qizi**

**e-mail: [shukuruovaruxsora5956@.com](mailto:shukuruovaruxsora5956@.com)**

**Annotasiya:** XIX asrda faoliyat yuritgan ko‘plab shoirlarning ikki yoki undan ortiq tillarda ijod qilgani barchamizga ma’lum. Ushbu maqolada Ogahiyning zullisonayn shoir sifatida, xususan fors tilidagi ijod namunlari va ularning mazmuni haqida.

**Kalit so‘zlar:** Ogahiy, zullisonayn shoir sifatida, fors-tojik, Amiriy, Qo‘qon xonligi.

Ogahiyning forsiy she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, shoir fors tilida ijod qilish fors-tojik adabiyotining zabardast vakillari ijodidan ta’sirlangan holda ushbu ta’sir ostida qolib ketish emasligini yaxshi anglaganini mushohada qilamiz. Umuman, Ogahiyning forsiy lirikasi an’anaviylik va novatorlik chegarasida turish bilan karakterlanadi. Bundan tashqari Ogahiy forsiy she’riyatida ham nazmbozlik, xususan, she’riyat uchun ayb sanaluvchi masx kabi nuqsonlardan holi she’rlar yaratishga intilgan. Ogahiy bu adabiyotning mashhur vakillari ijodidan qanchalik ta’sirlanmasin, mazkur tilda yaratgan har bir satrida o‘z daxosiga munosib ravishda muhim ijtimoiy fikrlarni bayon qilishga harakat qiladi. Masalan “Shabnamro” radifli g‘azalida

Maxo‘r hargiz fireb az fursati hastai dar in gulshan

Ki, umri nimro‘zi saxt noyob ast shabnamro

Ya’ni “bu gulshanda borlik fursatidan aldanib qolma, chunki shabnamga yarim kunlik umri ham juda qadrlidir (notobdir)”<sup>1</sup>. Ushbu misralar zamirida kata falsafiy mushohada yashiringan bo‘lib, inson umri nihoyatda omonatligi, shunday ekan, undan faqat ezgulikkina meros qolishi mumkinligi ta’kidlaydi shoir. Mazur g‘azal shoir

---

<sup>1</sup> Ta’viz –ul oshiqin. –B. 486,

tomonidan umrining so‘ngi yillarida, kata adabiy va hayotiy tajriba hosil qilgan davrda yaratilganligi “ Bu mo‘yi piri ashkam, Ogahiy, dar bahr agar g‘alatl”, ya’ni “ qariganda oppoq soqolim bilan, Ogahiy, ko‘z yoshim agar dengiga tushsa...” misrasidan ham bilib olamiz.

Shoir nazdida shabnam oqil inson uchun kata bir ibrat. Shuning uchun uning har bir jihatini shoir o‘zining hayotiy mushohadalari bayoni uchun badiiy ahamiyatga aylantiradi:

Sarash bar sachda boshad, z-in chixat dar hoki in buston

Ki, naqshi poyi on gulchehra mexrob ast shabnamro

Ya’ni shabnamga bu bo‘ston tuprog‘ida ul gulchehraning oyoq izi mexrob bo‘lgani kabi hamisha boshing sajdada bo‘lsin! Shu o‘rinda shoirning orginal tashbihi har jigar tob ast shabnamro, Ki sar to poy a‘zo az gudoz ob ast shabnamro” (Bilmadim nega shabnam buncha bezovta, mana shu hasratdan jismi boshdan oyoq suv bo‘lib ketibdi) degan savollarga javob berishga harakat qiladi. Umrning g‘animatligini Ogahiy “Subh” she’rida ham badiiy timsollar orqali ifodalaydi:

Shud az umri bebaqoi xudmagar ogoh subh,

Meravad az xeshtan har dam kashida oh subh.

Tarjimasi: O‘zini o‘tkinchi umridan bo‘ldimi yo ogoh tong,

O‘zidan ketar har dam chekibon oh tong<sup>2</sup>.

Shoirning falsafiy mushohadasiga ko‘ra, umrning g‘animatligini anglash uchun inson qalbida tong kabi musaffolik bo‘lmog‘i kerak, degan g‘oya mana shu badiiy timsollar ostida yashiringan. Ogahiy ijodining ham markaziy mavzusi - inson. Shuning uchun, eng avvalo insonlar bir-birlarini qadrlamoqliklari kerak.

Keyingi misralarda shoir sulukning eng asosiy shartlaridan birini badiiy obrazlar orqali quyidagicha bayon qiladi:

Chilvai yorat, agar xohy zi haty dur shav,

<sup>2</sup> A.Axmedov tarjimasi. Merosga mexr. —Toshkent TDPU, 2003 —B. 88.

Mekushoyad baxri mehri mehr az raftani xud roh subx.

Tarjimasi: Agar yoring jilvasi(vasli)ni istasang,o'ingdan kech, xuddi o'zidan kechish bilan quyoshga yo'l ochgani kabi.

Quyidagi g'azal esa majoziy ishqning go'zal tarannumi bo'lib Ogahiyning o'zbekcha she'riyatidagi

Yuzing ochkim, Quyosh sadqang bo'lib boshingdin aylansun,

Yangi oy yuz tavoze' ko'rguzub qoshingdin aylansun<sup>3</sup>

Matla'li g'azali ruhida yozilgan:

Shabe tanxo biyo, chun mohi tobon, az asrat gardam,

Ruxatro kun maro sham'i shabiston, az sarat gardam —

Sadqang bo'lay, bir kecha to'lin oyday bo'lib tanxo kel, yuzingni men uchun tunimni yorituvchi sham qil.

Baytda soqilikning ko'ngilga o'zidan boshqa daxl qila olmaydigan fayz yetishi, tariqat maqomlarini bosqichma-bosqich o'tash asnosida yuz beradigan inkishof mazmuni an'anaviy tarzda tavsiflangan.

Ogahiyning forsiy g'azaliyotida Amiriy g'azaliga ikkita tatabbu' va uning ikkita g'azaliga muxammas uchraydi. Bu birinchidan, Amiriyning badiiy mahoratiga tahsin bo'lsa, ikkinchidan Qo'qon xonligi bilan diplomatik aloqalarga ham ijobiy ta'sir o'tkazish maqsadida bo'lsa ajab emas. Uchinchidan, Ogahiy Buxoro amiri amir Nasurulloning 1842-yilda Qo'qon xonligiga qilgan birodarkushlik urushiga o'zining salbiy munosabatini bildirgan. Ushbu adabiy hayrixohlik zamirida siyosiy yakdillikni qo'llash ham bo'lishi ehtimoldan holi emas. Zero "Agar jami' o'lsa uchqun bir makonga, Bo'lur, albatta, otashgoh paydo" degan birdamlikni misralarida keltirgan.

---

<sup>3</sup> Ogahiy. Asarlar. Ikkinchi jild. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti, 1972. B.15

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232
4. Navoiy asarlar lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomiligiga ilova. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 782
5. Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
6. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
7. Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b
8. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b
9. Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1982